

MILLIY RAQS SAN'ATIMIZ FIDOKORI

Muxamedova O'g'iloy Nizamovna

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Xoreografiya kafedrası professori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq orasida barcha raqslar va ijrochilik mahorati bilan mashhur, o'zbek qizi Tamaraxonim ijodi, Marg'ilon, Farg'ona, Buxoro, qisman Qo'qon kabi madaniy markazlarning shahar raqslarida aniq ko'zga tashlanmaydigan hududlardagi mahalliy aholining madaniyati o'ziga xosligi, lirik raqslarning ikki turga bo'linishi, ijrosida yaqqol ko'zga tashlanishi. Professional raqsa sifatida Tamaraxonim dunyo kezishi, raqs harakatlariga mehnat qilish jarayoni namoyish etilishi, inson hayolida paydo bo'lgan tasviriy harakatlar aniq belgilangan obrazli umumlashtirilgan ritmik–plastik usullarga birlashib ketishi. Xalq lirik, lapar san'atida tasviriy–ifodali usullar o'zining qadimiy ko'rinishi va ustoz shogird an'analarida jonlanganligi borasida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** raqs, lapar, xalq, ustoz, o'yin, xoreografiya, hudud, ijro, lirik, ijodkor

**Аннотация:** В данной статье рассматривается творчество узбекской девушки Тамарахоним, известной в народе всеми своими танцами и исполнительским мастерством, что не совсем заметно в городских танцах таких культурных центров, как Маргилон, Фергана, Бухара, частично Кокан. своеобразие культуры местного населения регионов, деление лирических танцев на два типа, которые хорошо заметны в их исполнении. Как профессиональная танцовщица Тамарахоним путешествует по миру, показан процесс работы над танцевальными движениями, визуальные движения, возникающие в воображении человека, представляют собой обобщенную ритмо-пластику с четко выраженным образом. объединение в методы. В народном лирическом и лапарном искусстве изобразительные и выразительные методы рассматриваются с точки зрения их древнего облика и возрождения в традициях мастер-ученик.

**Ключевые слова:** танец, лапар, народный, педагог, игра, хореография, территория, спектакль, лирика, творец.

**Annotation:** This article examines the work of the Uzbek girl Tamarahonim, popularly known for all her dancing and performing skills, which is not entirely noticeable in the urban dances of such cultural centers as Margilon, Fergana, Bukhara, and partially Kokan. the uniqueness of the culture of the local population of the regions, the division of lyrical dances into two types, which are clearly visible in their performance. As a professional dancer Tamarahonim travels around the world, the process of working on dance movements is shown, the visual movements that arise in the human imagination represent a generalized rhythmic plasticity with a clearly defined image. combining into methods. In folk lyrical and laparian art, visual and expressive methods are considered from the point of view of their ancient appearance and revival in the master-apprentice tradition.

**Key words:** dance, lapar, folk, teacher, game, choreography, territory, performance, lyrics, creator.

Professional raqqos va raqqosalar oliy darajadagi drama, tragediyaning umumlashma shakllarini yarata oladilar. Raqslar libosi-raqs ijro etish uchun oddiy xalq maxsus kiyimlar tanlab tayyorlamagan kundalik kiyimlarida raqsga tushishgan, o'z navbatida agar bayramlar nishonlansa, ushbu tadbir uchun orasta yuvib tozalangan kiyimlarda o'ynagan.

Farg'ona viloyati erkak va ayollar liboslarining o'ziga xosligi boshqa hududlarga nisbatan ajralib turgan. Erkak va ayol liboslarining bichimi bir xil bo'lgan. Ayol uzun (to'pig'igacha) to'g'ri tikilgan, yengi bichimi yaxlit, qo'lidan uzunroq tushib turadigan ko'ylak kiyishgan. Qizlar ko'ylagining yoqasi biroz ochiq bo'lsa, ayollarida tik yoqali va yoqasi toqiga ulanib ketadigan ko'ylak kiyishgan. Ko'ylak yoqasi tugmali yoki munchoq bilan bezatilgan. Yoqa va toqida jimjimalari bo'lishi ham udumga kirgan. Ko'ylak ostidan yoqasi ochiq ichki ko'ylak va lozim kiygan. Lozim ikki bo'lak matodan tikilgan bo'lib, yuqori qismi kengroq, pasti torroq, beliga tasma o'tkazilgan.<sup>31</sup>

Qizlar ko'ylagining yoqasi naqshli jiyak bilan bezalgan. Qiz-ayollarning lozimi huddi shunday jiyak bilan bezalgan. Boshlariga ikkita yoki bitta ro'mol o'raganlar. Agar ro'mol bitta bo'lsa, u orqaga tugun qilib o'ralgan, agar ro'mol ikkita bo'lsa, birinchi ro'molga qattiq peshonabog' qilib qo'yilgan yoki do'ppi kiyishgan. Ikkinchisini esa ikki uchini oldi tomonga tushirgan holda boshga tashlab olishgan.

“Katta o'yin” materiallaridan tuzilgan Marg'ilon – Farg'ona ayollar raqslari ayollarga xos nazokatni bo'rttirib ko'rsatadi. Raqqosaga qo'lni nigohdan baland ko'tarishga yo'l qo'ymaydigan “Nigoh qonuni” aynan shu hududda paydo bo'lganligi o'z aksini ko'rsatmoqda. Erkaklar boshini mag'rur ko'tarib tursa, ayollar boshlarini biroz quyi pastlatib, nigohlarni qo'l uchi bilan to'sib turgan.

Qo'qon ayollar va erkaklar raqslari ancha jo'shqin, ochiq, har bir raqs frazasi yakunida qo'l va yelka harakatlari ancha keskin bo'ladi.

Andijoncha ayollar raqsi Qo'qon ayollar raqsiga ancha o'xshashdir. “Andijon polkasi” deb atalmish andijoncha yigitlar o'yini butun Farg'ona vodiysining ko'rki desak adashmaymiz. O'zbekiston hududi bo'ylab ijro etiladigan ushbu o'yin to'y marosimlarida omma tomonidan zavq bilan ijro etiladi.

Farg'ona maktabining asoschilari Yusufjon qiziq Shakarjonov va usta Olim Komilov “Andijon samosi” yigitlar o'yini qadimdan shu viloyatda o'zbeklar bilan tojiklar hamjihatlikda yashab kelgan uyg'urlar raqslari jo'shqinligi bilan yo'g'rilgan deb hisoblaydilar.

Ularning fikricha, XIX asrning 80-yillaridan boshlab Andijonga kirib kelgan ruslar tomonidan “pol'ka” iborasi qo'llana boshlagan.

“Andijon polkasi”-chapani, chayr, harakatchan, hayotdan zavqlanib yashaydigan yigitlar raqsi.

<sup>31</sup> Avdeeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan T., “O'zbekraqs”. 2001.

Mushaklar kuchini ko`rsatuvchi raqs qo`l-oyoq harakatlarining tezligi bilan ahamiyatlidir.

Raqs maydonchasi markaziga qarab, tananing yuqori qismini ozgina pastga tashlab va mushtlarni davomiy tarzda pastdan yuqoriga qarab irg`itib burishi mushaklarning kuchini ko`rsatishi bilan muxlislarni lol qoldiradi.

Farg`ona va Qo`qon rasqlarining majmuasidan tashkil topgan “Ho-ho-yalla” qo`shig`i jo`rligida ijro etiladigan raqs-sof namanganchadir. Ayollari bu qo`shiqni avj bilan aytadilar. Farg`onacha nozik va tortinchoq, Qo`qoncha jo`shqin va qo`pol raqs uslubidan yaralgan ushbu raqs erkaklari orasida diskant, ya`ni bolalarga xos ingichka ovoz bilan ijro uslubiga xosdir.

Birgina ayollar raqsi “Tanovor”ni olsak, ko`p variantlilikiga qaramay, har biri ijrosida o`ziga xoslik va namunaga arzigulik maktab yotadi va bu raqslarni alohida janr deb ham atash mumkin.

U juda bebaho intim janr. Ijrochisi qayerda bo`lishidan qat`iy nazar, ya`ni chekka qishloqdami yoki markazdami, barcha lirik qahramoni yordan yiroq bo`lgan o`z iztiroblarida ro`yobga chiqmagan orzularini qo`shiq qilib ijroga yo`naltiradi. Bu g`am-alamlarini to`kib sochgan sari umid uchqunlari paydo bo`ladi va bu ayolda yashashga undaydigan ichki kuch, qiziqish yaraladi. U qalbidagi sirlarini, tug`yonlarini raqsda ifodalaydi. Tana, elkalar biroz egilgan, bosh bir nuqtaga yoyilgandek, qadamlari yengil, tizzalari biroz bukilgan, faqat qo`llar gohida sekin, cho`ziq, o`ziga yarashgan ma`yus harakatlari bilan yurak dardini ohista yorita boshlaydi.<sup>32</sup>

Qo`l uchlari hali so`nmagan umidlaridan dalolat bergandek, ko`zidagi bejolik yashashga bo`lgan intilishini ko`rsatadi. Farg`ona shahar va qishloqlarida “Poy” o`yin-oyoq o`yini ham keng tarqalgan. Raqslarining eng soddasi-childirma bilan shuningdek, ikkala qo`lda ro`molcha bilan ijro etiladigan raqslar bo`lgan. Raqqos yoki raqqosa childirma bilan o`ziga o`zi jo`r bo`lgan yoki ritmni qo`lidagi ro`molchasi bilan belgilab borgan. Oddiy ritmik harakat-mayda qadam sanalgan.

Oyoqlar birlashtirilgan holda yerda surilib, daryo to`lqinlarini ifodalovchi harakatlar ko`zga tashlangan.

Tamaraxonim. Xoreografiya san`atining shakllanishida va rivojlanishida 20-yillarning boshlarida o`zbek ayollarimiz raqs san`atida jonbozlik ko`rsatishgan. O`sha davr mashaqqatli, to`s-to`polon, alg`ov-dalg`ov yillar bo`lsa-da, o`zbek ayollarimiz savodsizlikni tugatib paranji-chachvondan ozod bo`lib, hayotda o`z-o`zligini erkin his qilish uchun bosmachilardan hayqasalarda-kelajak avlod ayollari erki uchun kurashdilar. Sharq ayollarining ozodlikka chiqishi uchun kurash albatta, qurbonlarsiz bo`lmadi. Nurxon, To`paxon, Xalimalar sahnada ochiq yuz bilan paranjisiz raqs, tushib rol o`ynashgani uchun o`sha davr qurboni bo`lishgan. O`sha davrda raqsni to`g`ri qabul qilolmagan bo`lishlari tabiiy. Ozodlikka erishish uchun ko`plab to`sqinliklar bo`lgan. Raqs

<sup>32</sup> Rahmonov M. O`zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar.- T., Fan, 1975.

san`ati shakllanishida jonbozlik qilgan birinchi o`zbek aktrisalari bizga ibrat, orzularimiz timsoli bo`lgan. Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Gavhar Rahimova, Mariya Kuznetsova, Ma`suma Qorievalar shular jumlasidandir. Bosmachilar ularni ham turli yo`llar bilan qo`rqitishgan, biroq bu san`at fidoyilari o`z kasbiga sodiq qolishgan. Endi shu san`at fidoyilarining saralari, raqs darg`alarini, xoreografiya sohasiga qo`shgan hissalarini haqida fikrlashsak.<sup>33</sup>

Yusufjon qiziq Shakarjonovning shogirdi Tamaraxonim o`zbek xonandasi, raqqosasi va baletmeysteridir. U Farg`ona viloyatining Gorchakova qishlog`ida 1906 yilda ishchi oilasida tug`ilgan. Sahna faoliyatini 1919-yilda Xamza tashkil etgan drama truppasida boshlagan.<sup>34</sup>

1921-1922 yillarda Toshkent davlat teatrida ishlagan. 1923-1924-yillarda Moskva shahridagi Lunachayrskiy nomidagi teatr texnikumida o`qigan. 1924-yilda Muhiddin qori Yoqubov rahbarlik qilayotgan konsert truppasiga ishga kiradi va bevosita shu yerda sahnaviy ijrolarda ishtirok etadi. 1925-yilda Parijdagi jahon dekarativ san`at ko`rgazmasida qatnashadi. 1925-1929-yillarda Qo`qon, Andijon va Samarqand teatrlarida ishlab Xojibekov tomonidan yaratilgan "Arshi mololon" spektaklida Gulchehra, G`ulom Zafariyda Xalima, Xurshidning "Farhod va Shirin"ida Shirin rollarini ijro etdi. 1929-1934-yillarda Samarqand o`zbek musiqali teatrida ishladi. 1934-1935-yillarda Xorazm teatrlarida mehnat faoliyatini yuritdi.

1936-1941-yillarda O`zbek davlat filarmoniyasida, o`zbek davlat musiqali teatrida raqqosa va baletmeysteri vazifalarida jonbozlik ko`rsatdi. Ustozi Usta Olim Komilov bilan "Bahor", "Qizil va oq", "Atirgullar urushi" nomli raqslar sahnalashtirdi. "Gulandon" baletini sahnalashtirib, bosh rolda o`zini sinab ko`rdi. 1941-1969-yillar O`zbek davlat filarmoniyasida musiqa dastasiga badiiy rahbar, baletmeyster va ijrochi sifatida taniladi. O`sha davrlardayoq butunjahonda o`zining raqslari bilan tanilib, keyinchilik yangi-yangi laparlar yaratib o`z repertuarini boyitgan. Uning sara laparlaridan: "Yallama yorim", "Omon yor", "Mavrigi" "Bilakuzuk", "Lolaxon", "Oyijon", "Fabrika yo`lida", "Qari navo" shular jumlasidandir. Tamaraxonim ijodiy izlanishdan to`xtamaydi va zamonasining etuk san`atkorlari bo`lgan K.Stanislavskiy, V.Nemirovich-Donchenko, V.Mayerxold, A.Nejdanova, Xamzalardan ashulachilik va aktyorlik mahoratini o`rganishi samarasida rus shoirlari jumladan, S.Raxmaninov, A.Lunacharskiy, N.Xikmat, S.Yesenin, V.Mayakovskiyilar bilan uchrashuvlari va qizg`in mulohazalari uni yanada ijod qilishida ahamiyat kasb etadi.<sup>35</sup>

Yuqoridagilardan ham ma`lum-ki, arman millatiga mansub Tamaraxonim o`zbek raqs va teatr san`atini rivojlantirish va taraqqiy ettirish uchun kurashning oldingi safida xizmat qildi. U sahnada o`zbek xotin-qizlarini ozodlikka, erkinlikka chaqiruvchi rol va raqslari bilan ijodiy-targ`ibot ishlarini olib bordi. Tamaraxonim o`zbek san`atining yirik

<sup>33</sup> Qodirov M. An`anaviy teatr tarixi. – T., G`ulom nashriyoti, 1975.

<sup>34</sup> Muxamedova O`N. "Uyg`ur xalq raqsi" T., 2009.

<sup>35</sup> Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san`atlari. – T., Fan,1997.

namoyandalari Muhitdin qori Yoqubov, doirachi Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, To`xtasin Jalilov, Jo`ra Sulstonov, Xoji Siddiq Islomov, kabi ajoyib san`atkorlardan ta`lim olgan. Uning ijodi asosan butun jahon millatlarining xalq raqslari ya`ni folklor raqslarini ijro etish hamda o`zbek lapar-janrining rivojlanitirishga qaratilgan.

Ha, Tamaraxonim ko`p qirrali iste`dod sohibasi sifatidagina emas, balki baletmeyster sifatida ham mahorat ko`rsatganligi yillar salnomasidan ma`lumdir. Tamaraxonim ustoz usta Olim Komilov rahbarligida 1932-yili Moskvada o`tkazilgan “O`zbekiston xalq san`ati Olimpiadasi” uchun ommaviy va yakka raqs dasturini tayyorlagan. Zo`r ijodiy mehnati tufayli o`zbek raqs san`atining o`ziga xos yorqin tomonlarini ochib bergan. Bunga misol qilib “O`zbekiston xalq san`ati olimpiadasida” o`zi ijro etgan “Pilla” raqsini olishimiz mumkin. Bu raqsda o`zbek ayolining pilla qurtidan ip yigirib, mato ishlab chiqish kabi mashaqqatli mehnatini harakatlar orqali mohirona tasvirlab bergan. Yangi xoreografik kadrlar tayyorlash, musiqa va raqs san`atini rivojlantirishdagi katta yutuqlari uchun 1932-yili O`zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo`ldi. 1935-yilda Londonda bo`lib o`tgan “Birinchil xalqaro xalq raqs va musiqa san`ati” festivalida o`zbek va Xorazm san`atining jahonga hali noma`lum bo`lgan o`ziga xos uslubini namoyish qilgani uchun Tamaraxonim va usta Olim Komilovlar “Oltin medal” sohibi bo`lishgandi.

O`z navbatida tomoshabinlar esa Tamaraxonimni “Sharq marvaridi” deb atashgan. Tamaraxonim o`z repertuarini turli millat qo`shiq, raqslari bilan boyitib bordi. Uning “Jahon va qardosh xalqlarining qo`shiq va raqslari” degan yangi konsert afishalari artistkaning qanday ijod egasi ekanligini tasdiqlaydi. Raqs san`ati sohasidagi buyuk xizmatlari uchun Tamaraxonim 1956-yilda “Xalq artisti” unvoniga sazovor bo`ldi. O`zbek raqs rivojlanishi uchun qilgan yana asosiy ishlaridan biri, ustoz usta Olim Komilov bilan birgalikda yaratgan “Doira dars”ligidir. O`zida raqs harakatlarini mujjasam qilgan va xozirgi kunda o`quv qo`llanmasi darajasiga etgan, o`zbek raqsini rivojlantirishda asosiy o`rin egallagan, “Doira dars”ligi kelgusi shogirdlarga qolgan oltin merosdir.

Tamaraxonim II jahon urushi davrida, ya`ni 1941-1945-yillarda O`zbek davlat filarmoniyasining musiqa dastasida bilan Kiev, Ukraina frontlarida konsert brigadalari bilan askarlarga dalda va ko`mak bo`ladi. Ulug` vatan urushidagi ko`rsatgan umummadaniy va ma`naviy kuch va jasorati uchun harbiy kapitan unvoni bilan taqdirlanadi. O`zbek davlat filarmoniyasida 1969-yillarga qadar badiiy rahbar, baletmeyster va ijrochi sifatida o`z muxlislariga ega bo`ladi.

Uning qo`shiqlari va laparlari jamlamasida butun dunyo xalqining turmush tarzi, milliy qadriyati, ayniqsa ayollarning o`zgacha did va nazokatga ega ekanligi, yoqimliliigi, mavzu kompozitsiyalari xalqchilligi, ijrosidagi samimiyliigi, xalqlararo do`stlik va tinchlik rishtalarini yanada jiplashtirishi, qolaversa, ayollar erkinliigi va ozodligining yuksak nishonasi bo`lgan. Xalqlararo mehr-muhabbat, sevgi va sadoqatni kuylovchi arman qizining repertuaridan: “O`zbekcha vals”, qirg`izcha “Parizodoy”, tojikcha “Jo`ra jonim”, armancha “Kim kelayapti?”, tatarcha “Garmonist”, qozoqcha “Qora to`rg`ay”, uyg`urcha

“Qoshing qarosi”, hindcha “Nilufar”, arabcha “Bindi shalabiya”, indonezcha “Qaydasan qo`zichog`im?” kabi qo`shiq va laparlar joy olgan.

Arman qizi bo`lishiga qaramay, o`zbek xalqi san`ati tarixiga benazir va sezilarli hissa qo`shgan Tamara Petrosova shogirdlari Mukarrama Turg`unboyeva, Galiya Izmaylova, Gavhar Rahimova, Gulnora Mavaeva, Xalima Komilova, Isohor Oqilovlarga saboq va ijodiy yo`l ko`rsatganligi bilan tarix zarvaraqlarida o`chmas iz qoldirganligi bilan ahamiyatlidir. Tamaraxonim 1991yili Toshkent shahrida vafot etadi va uning rasmiy qabri “Chig`atoy qabristonidadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avdeeva L. O`zbek milliy raqsi tarixidan T., “O`zbekraqs”. 2001.
2. Rahmonov M. O`zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar.- T., Fan, 1975.
3. Qodirov M. An`anaviy teatr tarixi. – T., G`ulom nashriyoti, 1975.
4. Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san`atlari. – T., Fan, 1997.
5. Karimova R. Xorezmskiy tanets T., 1975.
6. Muxamedova O`N. “Uyg`ur xalq raqsi” T., 2009.
7. Tangureyeva S. Vsya jizn v tantse T., 2006.